



BO‘LAJAK O‘QITUVCHI PEDAGOGIK MULOQOT USULLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Boqiyev G‘ulomjon Ochilovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Pedagogika va o‘qitish metodikasi”

kafedrası v.b. professori

Irisova Aziza Orif qizi

Pedagogika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasi mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda pedagogik muloqotning mohiyati, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun uning ahamiyati va zamonaviy ta‘lim sharoitida muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy texnologiyalari tahlil qilinadi. Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida amaliyot, refleksiya, ijodiy muhit va mentorlik tizimining o‘rnini ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik mahorat, ta‘lim sifati, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, pedagogic ko‘mmunikatsiya, interfaol metodlar, emperiya, konfliktologik kompetensiya, psixologik moslashuv.*

Аннотация: *Данная статья посвящена теме технологии развития методов педагогического общения будущего учителя. В ней анализируются сущность педагогического общения, его значение для будущих педагогов, а также основные технологии формирования коммуникативных навыков в условиях современного образования. Показана роль практики, рефлексии, творческой среды и менторской системы в процессе подготовки будущих учителей к педагогической деятельности в высших учебных заведениях.*

Ключивые слова: *будущий учитель, педагогическое мастерство, качества образования, профессиональная компетенция, педагогическая коммуникация, интер активные методы, эмпирия, конфликтологическая компетенция, психологическая адаптация.*

Abstract: *This article is devoted to the technology of developing pedagogical communication methods for future teachers. It analyzes the essence of pedagogical communication, its significance for prospective educators, as well as the main technologies for developing communication skills in the context of modern education. The article highlights the role of practice, reflection, a creative environment, and a mentoring system in preparing future teachers for pedagogical activity in higher education institutions.*

Keywords: *future teacher, pedagogical mastery, quality of education, professional competence, innovative technologies, pedagogical communication, interactive methods, empiricism, conflictological competence, psychological adaptation.*



Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish shaxs sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Pedagogik muloqot o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faol jarayon bo'lib unda o'quv jarayonini sifatini oshirish, motivatsiya yaratish, shuningdek, konfliktlarni oldini olish vaziyatlari hal qiladi. Shuning uchun, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyalari bilan tayyorlash zamon ta'limining eng dolzarb masalalaridan biridir.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik kadrlar kompetensiyasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xususan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasini kuchaytirish ta'lim sifatini oshirishning asosiy mezonlaridan biri sifatida belgilangan. OECD-2023 hisobotiga ko'ra, ta'lim sifatining 43% o'qituvchi kommunikativ madaniyatiga bog'liq bo'lishi uqtiriladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala ekanini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasi, uning nazariy asoslari, bosqichlari, samarali metodlari va amaliy qo'llash tajribasi ilmiy jihatdan yoritilgan. Ushbu maqolaning maqsadi-bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining nazariy-metodik asoslarini yoritish va ularni amaliyotga tadbqiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- pedagogik muloqotning nazariy asoslarini tahlil qilish;
- bo'lajak o'qituvchida muloqot kompetensiyasining tarkibini aniqlash;
- muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyalarini asoslash;
- amaliy mashg'ulot va treninglar samaradorligini ko'rsatish.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – zamonaviy pedagogik fikrlashga, ilg'or innovatsion texnologiyalarni o'z faoliyatida samarali qo'llay oladigan, kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan malakali o'qituvchilarni tayyorlashdir. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliydasturi", shuningdek, Prezident farmoni va qarorlari o'qituvchi shaxsiga yuksak talabalarni qo'ymoqda. Pedagogik muloqot o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida bilim va tajriba almashish jarayoni. Bunda o'quvchi faollik ko'rsatadi, savol beradi, fikr almashadi va o'rganadi. Pedagogik muloqot o'zaro ta'sir va moslashuvchanlik xususiyatlariga ega. Har bir ishtirokchi bu jarayonda faol bo'ladi, boshqalar bilan bog'landi, vaziyatga qarab o'z harakatlarini moslashtiradi.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun pedagogik muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish juda muhim, shuning uchun bu darsni qiziqarli qiladi, o'quvchilarni faol qiladi va yangi metodlarni osonroq qo'llashga yordam beradi. Shuning uchun o'quvchilarda ijobiy munosabat va o'zini erkin his qilish hissi shakllanadi. Pedagogik muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun bir nechta oddiy usullar qo'llanilishi mumkin. Interaktiv o'yinlar va treninglar yangicha metodlar o'quvchilarni darsga jalb qiladi. Onlayn platformalar orqali





masofadan ham samarali ishlash mumkin. Tajribali o'qituvchilar bilan maslahat va qo'llanmalardan foydalanish yangi bilimlarni o'rganishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, o'z faoliyatini tahlil qilish va hatolarni tuzatish orqali pedagogik ko'nikmalar rivojlanadi.

Pedagogikmuloqot tushunchasiga olimlarturlichata'rifberishgan.

Y.A.Komenskiy pedagogik muloqotni: "O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida maqsadli axborot almashinuvi jarayoni" - deb ta'riflaydi.

V.A.Suxomlinskiy esa, uni: "O'qituvchining tarbiyaviy ta'sirining asosiy mexanizmi" - sifatida ko'radi.

M.G.Davetshin fikricha, "Pedagogik muloqot-bu shaxslararo ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, unga emotsional, axloqiy va intellectual omillar ta'sir ko'rsatadi". Ushbu ta'riflar pedagogik muloqotning ko'p qirrali jarayon ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogika olimlari D.Goleman, K.Rodgers, B.Bloom o'z tadqiqotlarida o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida muhim omil ekanini ta'kidlanadi. O'quvchilarda motivatsiya yaratish ham juda muhim. Maqsad va vazifalarni aniq tushuntirish, darsni qiziqarli qilish, har bir o'quvchining qobiliyatini hisobga olish va ularni rag'batlantirish o'quvchilarning bilim olishga qiziqishi oshiradi. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro muloqot madaniyatiga erishish natijasida quyidagi holatlar paydo bo'ladi:

-pedagogik muloqot orqali o'qituvchi tarbiyalanuvchi ob'ekt bilan o'zaro xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o'qituvchi o'zining psixologik, mimik, pantamimik, notiqlik san'ati, ta'siri o'tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;

-o'qituvchining shirinsuhanligi ochiq-chehrali bo'lishi samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;

-o'quvchilar jamoasi bilan muammolada o'qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;

-o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jamoasi bilan o'zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotda yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasi- kelajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini, xususan pedagogik muloqot ko'nikmalarini bosqichma-bosqich tizimli maqsadga yo'naltirilgan tarzda shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan metodlar, usullar va vositalar majmuasidir.

Texnologiyaning asosiy maqsadi kelajak o'qituvchi o'quvchi bilan samarali, insonparvar empatik, aniq va psixologik jihatdan qulay muloqot qila olishi.

Texnologiyaning asosiy yo'nalishlari.

1. Nutq madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi:

- to'g'ri talaffuz; ravon nutq;
- so'z boyligini kengaytirish;
- pedagogik ohang, intonatsiya pauz, muomala odobi;
- qiyin vaziyatlarda to'g'rigapirish usullari.



2. Interfaol muloqot usullarini o'rgatish texnologiyasi:

- aqliy hujum;
- munozara; debat;
- rol o'ynash; klaster.
- bu usullar o'qituvchining o'quvchi bilan faol muloqot ko'nikmasini shakllantiradi.

3. Empatiya va faoltenglash texnologiyasi:
- o'quvchini to'liq tinglash; his tuyg'uni anglash;
 - o'quvchining holatini to'g'ri baholash;
 - "Men-xabarlar" texnikasi;
 - noverbal muloqotlar ko'z qarashi, imo-ishora, tana holati.
4. Konfliktologik kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi:
- ziddiyat sabablarini aniqlash; agressiyani yumshatish;
 - konstruktiv muloqot qilish.

5. Ijtimoiy-psixologik trening texnologiyasi.

Treninglar orqali bo'lajak o'qituvchi:

-jamo'a bilan ishlashni; o'z fikrini aniq etkazishni;

-o'quvchini rag'batlantirishni; jamoada muloqot usullarini o'rganadi.

6. Muloqotdagi texnik ko'nikmalarni shakllantirish:

- svol berish texnikasi; fikrni izohlash;
- qayta so'zlab berish; muloqotni boshqarish;
- xatolikni yumshoq aytish.

Rivojlantirish texnologiyasining bosqichlari.

1.Diagnostika bosqichi.

Bo'lajak o'qituvchining hozirgi muloqot darajasi aniqlanadi:

- test; kuzatuv;
- suhbat; psixologik diagnostika.

2. Maqsad qo'yish bosqichi.

Kamchiliklar asosida individual rivojlantirish reja tuziladi.

3. O'qitish (trening) bosqichi:

- amaliy mashg'ulot; treninglar;
- rolli o'yinlari; vaziyatli topshiriqlar.

4. Mustahkamlash bosqichi.

Amaliyot darslarida muloqot ko'nikmalarini qo'llash.

5. Nazorat va tahlil.

O'quvchining o'zini baholashi, ustoz tomonidan qayta diagnostika.

Texnologiyada qo'llanadigan metodlar:

- rol o'ynash texnikasi; vaziyatli trening (case study);
- interfaol muloqot metodlar; munozara va debatlar;



- 
- mentorlik (ustoz-shogird), vediotahlil (o'z darsini ko'rib xulosa chiqarish).

Ushbu bosqichlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, pedagogik muloqotni rivojlantirishning kompleks modelini tashkil etadi. Model bo'lajak o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, psixologik tayyorgarligi va amaliy ko'nikmalarini hisobga oladi.

Kutiladigan natijalar.

Bo'lajak o'qituvchilar:

- o'quvchi bilan ishonchli muloqot qila oladi;
- konfliktlarni yumshoq boshqaradi;
- dars jarayonini samarali olib boradi;
- inter faol muloqot usullaridan professionalik bilan foydalanadi.

Inter faol metodlar bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlashni, jamoa bilan ishlashni va vaziyatni to'g'ri baholashni rivojlantiradi. Shuningdek, faol tinglash, muloqot jarayonini boshqarish va ochiq savollar berish ko'nikmalari shakllanadi. Treninglar jarayonidatalabalar real vaziyatlarda muloqot strategiyalarini sinovdan o'tkazadilar. Natijalar pedagogik muloqot darajasining quyidagi indikatorlar orgali oshishini ko'rsatdi:

- 15-20% ga ortgan faol tinglash ko'nikmasi;-30% ga yaxshilangan nutq ravonligi;- konflikt va ziyatlarini hal qilishda 25% samaradorlik oshishi. Masalan: dars paytida o'quvchi topshiriqni bajarmagan vaziyatda o'qituvchi buyuq ohangidan foydalanmasdan, "Nima qiyin bo'ldi?", "Qaysi qismida yordam kerak?" kabi ochiq savollar bilan konstruktiv muloqot yuritishi o'quvchining ochiq bo'lishiga yordam beradi.

Yana bir misol: Guruh ishida kelib chiqqan kelishmovchilikni "Faol tinglash" texnikasi yordamida bartaraf etish orqali talabalar o'zaro hurmatga asoslangan muloqotga o'rganadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot kompetensiyasini baholash mezonlari:

- nutqni aniq, ravonligi;
- o'quvchini tinglash qobiliyati; savol berish mahorati;
- o'quvchini qo'llab-quvvatlash;
- noverbal muloqotning to'g'ri qo'llanishi;
- konfliktlarni boshqarish;
- dars jarayonida muloqotni boshqarish;
- jamoa bilan ishlash mahorati, emotsional barqarorlik. O'quvchilarni har bir ko'rsatkichda ball bilan baholanadi.

Xulosa: Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish va treninglardan foydalanish ta'lim jarayonini samarali qiladi. Trening o'quvchilarda faoliyatga qiziqishni oshiradi, muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi va darsni qiziqarli qiladi. Shu bilan birga motivatsiya yaratish orqali o'quvchilar bilim olishga intiladi va pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga qo'llash osonlashadi. Bo'lajak o'qituvchi uchun interaktiv samarali va rag'batlantiruvchi metodlarni o'rganish ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Xulosa qilish uchun qo'shimcha qiladigan bo'lsak, o'qituvchining muloqot mahorati uning professional muvaffaqiyatining 70% ini tashkil etadi. Muloqot texnologiyalarini o'zlashtirgan bo'lajak o'qituvchi sinfda ijobiy muhit yaratadi, o'quvchilar



bilan hamkorlik kuchayadi. Real vazifalar asosida mashqlar, treninglar, interfaol metodlar muloqotni sezilarli darajada rivojlantiradi. Muloqot texnologiyalari nafaqat dars jarayonini, balki o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini ham boyitadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot texnologiyasini qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi: talabalar nutqi ravonlashadi va fikrni aniq bayon qilish ko'nikmasi shakllanadi;

- pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish malakasi oshadi;
- jamoa bilan ishlash, nizoni boshqarish, savol-javob madaniyati rivojlanadi;
- shaxslararo muloqotda o'zini tutish strategiyalari boyiydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot texnologiyalaridan tizimli foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini sezilarli oshiradi. Taklif etilgan texnologiya modeli oily ta'lim muassasalarida amaliy qo'llashga mos bo'lib, muloqot sifatini yaxshilash orqali ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Abdullayev.R. Pedagogik muloqot va samarali o'qitish metodlari. Toshkent.2020. Ta'lim nashriyoti. 120-135 b.
- 2.Islomova.D. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy dars metodlari. Toshkent.2020. Ilm-fan nashriyoti.33-55 b.
- 3.Karimova.N. Pedagogik trening va interaktiv metodlar. Toshkent.2021. Ilmiy nashrlar.78-95 b.
- 4.Sultonov.A. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari. Toshkent.2022. Pedagogik nashriyoti.50-70 b.
- 5.Tursunov.S. O'qituvchi va o'quvchi muloqoti nazariya va amaliyot. Toshkent.2018. Universitet nashriyoti. 45-60 b.
- 6.Usmonov.S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent.2019. Fan va texnologiya nashriyoti. 60-82b.
7. O'razova.L. Ta'limda motivatsiya va samara dars o'tish. Toshkent. 2018. Ta'lim ilmiy markazi.102-115 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida PF-203-son farmoni. 11.09.2023.